XALQ DEPUTATLARI QO‘SHTEPA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-13-110-11-157-K/25 Qo‘shtepa tumani

Qo‘shtepa tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/07-17/10017-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Qo‘shtepa tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Qo‘shtepa tuman byudjetining 2026 yilgi daromadlari **137 874,5 mln.so‘m** va xarajatlari esa **137 874,5 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Qo‘shtepa tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **757,0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq

tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 871,0 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar
5-ilovaga;

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari 6-ilovaga;

Yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq o‘lchamdagi miqdor 7-ilova muvofiq tasdiqlansin.

6. Qo‘shtepa tuman soliq inspeksiyasi (I.Marayimov):

soliqlar bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 1-yanvarga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin;

tegishli bo‘limlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib,

Soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsin.

7. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Yunusov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Akbarov), tuman soliq inspeksiyasi (I.Marayimov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

9. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Qo‘shtepa tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (A.Abduraximov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Yunusov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ABDULLAYEV ANVARJON ALIYEVICH**

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-110-11-157-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qo‘shtepa tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	Daromad turlari	2026 yil uchun prognoz
	JAMI	**137 874 500**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	3 300 000
2	Foyda solig‘i	1 225 000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	9 507 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	43 799 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 202 000
6	Aksiz solig‘i jami	6 898 000
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*6 898 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 953 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	13 108 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 185 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	29 948 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 336 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*-1 969 200*
13	Davlat boji	1 648 500
14	Yig‘imlar	505 200
15	Jarimalar	2 035 000
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	194 000

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-110-11-157-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Qo‘shtepa tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
Xarajatlar miqdori, jami		**137 874 500**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	49 379 882
	shundan:	*x*
	"Mening maktabim"	*2 966 400*
2	«Kelajak» markazi	1 997 599
3	Musiqa san’at bolalar maktabi	2 019 013
4	Madaniyat bo‘limi	2 182 098
5	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	5 794 019
6	Sport maktabi	4 135 001
7	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 457 476
8	Qishloq xo‘jaligi sohasi	3 125 088
	shundan:	
	Veterinariya bo‘limi	*2 310 343*
	Xayvonlar kasalliklari tashxisi va ozik-ovkat maxsulotlari xavfsizligi Davlat markazi	*447 632*
	Fermer xo‘jaliklarida bulgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	*367 113*
9	Suv yetkazib berish davlat muassasasi	4 134 323
10	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	2 629 669
11	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazi xarajatlari	151 174
12	Hokimiyat	42 048 921
	shundan:	
	Tuman hokimligi	*5 513 729*
	maxallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	*5 610 785*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*2 371 720*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*23 918 466*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 763 199*
	Zahira jamg‘armasi	*1 871 022*
13	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	983 981

	shundan:	*x*
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	*150 981*
	Axborot-kutubxona markazi	*833 000*
14	Obodonlashtirish boshqarmasi	17 836 256

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-110-11-157-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qo‘shtepa tumani bo‘yicha Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari

ming so‘mda.

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun
1	Quvurboshi	0,97	40 085,0
2	Borot	0,95	39 259,0
3	Namuna	1,00	41 325,0
4	Nurafshon	0,97	40 085,0
5	Oqtepa	0,97	40 085,0
6	Paxtakor	0,95	39 259,0
7	Sarmazor	1,00	41 325,0
8	Soy bo‘yi	0,98	40 499,0
9	Solijonobod	0,95	39 259,0
10	Soxibkor	0,97	40 085,0
11	O‘qchi	1,00	41 325,0
12	Baland masjid	0,97	40 085,0
13	O‘rta O‘qchi	0,97	40 085,0
14	Xalqobod	0,97	40 085,0
15	Xumdon	0,98	40 499,0
16	Xo‘jaqishloq	0,97	40 085,0
17	Shakar	0,97	40 085,0
18	Shahartepa	0,97	40 085,0
19	Shodlik	0,98	40 499,0
20	Shomirza	0,97	40 085,0
21	Eshonguzar	1,00	41 325,0
22	Yangi Do‘kon	0,99	40 912,0
23	Yangiariq	0,97	40 085,0
24	Fayz	0,97	40 085,0
25	Langar	0,98	40 499,0
26	Loyson	0,97	40 085,0
27	Ko‘prikboshi	0,97	40 085,0
28	Vatan	0,96	39 672,0
29	Garmdon	0,95	39 259,0

30	G‘ishtmon	0,96	39 672,0
31	Dehqonobod	0,97	40 085,0
32	Do‘rmon	0,96	39 672,0
33	Do‘stlik	0,96	39 672,0
34	Istiqbol	0,95	39 259,0
35	Istiqlol	0,99	40 912,0
36	Qo‘rg‘oncha	0,96	39 672,0
37	Qayrag‘och	0,97	40 085,0
38	Yo‘ldoshobod	0,98	40 499,0
39	Karnaychi	0,96	39 672,0
40	Katta beshkapa	0,96	39 672,0
41	Kattaboltako‘l	0,96	39 672,0
42	Qizilariq	0,98	40 499,0
43	Qiyqi	0,97	40 085,0
44	Kichik beshkapa	0,97	40 085,0
45	Qorajiyda	0,96	39 672,0
46	Qorakaltak	0,98	40 499,0
47	Qoraqushchi	0,97	40 085,0
48	Qumtepa	0,99	40 912,0
49	Qamishtepa	0,99	40 912,0

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-110-11-157-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qo‘shtepa tumani bo‘yicha jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari

so‘mda

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun
1	Quvurboshi MFY	0,93	365,0
2	Borot MFY	0,91	357,0
3	Namuna MFY	0,93	365,0
4	Nurafshon MFY	0,91	357,0
5	Oqtepa MFY	0,91	357,0
6	Paxtakor MFY	0,90	353,0
7	Sarmazor MFY	0,93	365,0
8	Soy bo‘yi MFY	0,91	357,0
9	Soliobod MFY	0,91	357,0
10	Soxibkor MFY	0,90	353,0
11	O‘qchi MFY	0,93	365,0
12	Baland masjid MFY	0,93	365,0
13	O‘rta O‘qchi MFY	0,93	365,0
14	Xalqobod MFY	0,91	357,0
15	Xumdon MFY	0,91	357,0
16	Xo‘jaqishloq MFY	0,91	357,0
17	Shakar MFY	0,91	357,0
18	Shahartepa MFY	0,91	357,0
19	Shodlik MFY	0,93	365,0
20	Shomirza MFY	0,91	357,0
21	Eshonguzar MFY	0,96	376,0
22	Yangi Do‘kon MFY	0,93	365,0
23	Yangiariq MFY	0,91	357,0
24	Fayz MFY	0,93	365,0
25	Langar MFY	0,93	365,0
26	Loyson MFY	0,90	353,0

27	Ko‘prikboshi MFY	0,91	357,0
28	Vatan MFY	0,93	365,0
29	Garmdon MFY	0,91	357,0
30	G‘ishtmon MFY	0,93	365,0
31	Dehqonobod MFY	0,91	357,0
32	Do‘rmon MFY	0,91	357,0
33	Do‘stlik MFY	0,91	357,0
34	Istiqbol MFY	0,90	353,0
35	Istiqlol MFY	0,93	365,0
36	Qo‘rg‘oncha MFY	0,91	357,0
37	Qayrag‘och MFY	0,93	365,0
38	Yo‘ldoshobod MFY	0,93	365,0
39	Karnaychi MFY	0,91	357,0
40	Katta beshkapa MFY	0,90	353,0
41	Kattaboltako‘l MFY	0,93	365,0
42	Qizilariq MFY	0,93	365,0
43	Qiyqi MFY	0,93	365,0
44	Kichik beshkapa MFY	0,93	365,0
45	Qorajiyda MFY	0,90	353,0
46	Qorakaltak MFY	0,93	365,0
47	Qoraqushchi MFY	0,91	357,0
48	Qumtepa MFY	0,93	365,0
49	Qamishtepa MFY	0,93	365,0

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-110-11-157-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Ko‘chmas mulk obektlari ijara qiymatining 1 kvadrat metri uchun belgilanadigan minimal miqdorlar

so‘mda

№	Hudud nomi	2026 yil uchun			
		1 m.kv turar joylar uchun		1 m.kv noturar joylar uchun	
		Koef fitsient	Yakuniy stavkasi	Koef fitsient	Yakuniy stavkasi
1	Qo‘shtepa tumani	1,05	6 195,00	1,05	12 390,0

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-110-11-157-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari

so‘mda

T/r	Hududlar	2026-yil uchun			
		qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi		G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	
		Koeffitsient	Mutloq qiymat	Koeffitsient	Mutloq qiymat
1	Qo‘shtepa tumani	1,05	5 618,0	1,05	5 190,0

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-110-11-157-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq o‘lchamdagi miqdor

so‘mda

T/r	Hudud	2026 yil uchun							
		Iktisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun				Alkogolsiz ichimlik larni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulot larini ishlab chiqarish uchun		Avtotransport vositalarini yuvish uchun	
		Yer usti		Yer osti					
		Koeff itsient	Stavka	Koeff itsient	Stavka	Koeff itsient	Stavka	Koeff itsient	Stavka
1	Qo‘shtepa tumani	1,12	839,0	1,12	1 019,0	1,07	43 506,0	1,12	17 976,0